



ABDULLA QAHHOR “O’G’RI” HIKOYASIDA METAFORANING AKS ETISHI

Ubaydulloyeva Marjona Sobirovna

Buxoro davlat pedagogika institute 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Qahhorning “O’g’ri” hikoyasida metaforaning badiiy-estetik vazifasi tahlil qilinadi. Asarda qo'llangan metaforalar orqali yozuvchining ijtimoiy muammolarni, inson ruhiyati va jamiyatdagi adolatsizliklarni qanday mahorat bilan ifodalagani yoritib beriladi. Metaforalar qahramonlarning ichki kechinmalari, hayotiy fojealari hamda davr ruhini ochib berishda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qilgani asoslab beriladi. Tadqiqot davomida metaforaning obraz yaratishdagi o'rni, uning hikoya g'oyasini kuchaytirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: metafora, o'g'ri, obrazlilik, ijtimoiy muammo, inson ruhiyati, badiiy til, realism, ramziy ifoda.

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida realizm va satirani yuksak darajada uyg'unlashtira olgan yozuvchilardan biridir. Uning hikoyalari ixchamligi, hayotiyliigi va chuqur badiiy ma'nosi bilan ajralib turadi. Yozuvchi jamiyatdagi illatlar, inson xarakteridagi nuqsonlarni ochishda turli badiiy vositalardan, xususan metaforalardan mohirona foydalangan. “O’g’ri” hikoyasi Abdulla Qahhor ijodida metaforik tasvirning yorqin namunasi bo'lib, unda jamiyatdagi adolatsizlik, johillik, befarqlik va ma'naviy qashshoqlik ramziy obrazlar orqali ochib beriladi.

Metafora adabiyotda eng muhim tasviriy vositalardan biri bo'lib, bir predmet yoki hodisaning xususiyatini boshqasiga ko'chirish orqali yangi badiiy ma'no hosil qiladi. Metafora nafaqat tilning bezagi, balki muallif dunyoqarashining ifodasi hisoblanadi. Abdulla Qahhor metaforani sun'iy bezak sifatida emas, balki fikrni teranlashtiruvchi vosita sifatida qo'llaydi. Uning metaforalari sodda, xalqona bo'lsa-da, chuqur ma'naviy yukga ega. “O’g’ri” hikoyasida metaforalar jamiyatdagi nosog'lom muhitni ochib berishga xizmat qiladi.

“O’g’ri” hikoyasi oddiy voqea asosida qurilgan: kambag'al dehqon Qobil boboning ho'kizi o'g'irlanadi. Ammo bu hodisa orqali yozuvchi butun bir davr muammolarini ko'rsatadi. Hikoyadagi asosiy mojaro – o'g'rilik emas, balki insoniylikning yo'qolishi, mansabdorlarning befarqligi va adolatsizligi hisoblanadi.

Asarda o'g'ri aniq shaxs sifatida emas, balki ijtimoiy illat sifatida gavdalanadi. Aynan shu jihat metaforik tasvirning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Qobil bobo obrazi hikoyaning markaziy qahramoni bo'lib, u butun bir ezilgan xalq timsolidir. Xalqning ayanchli taqdiri shu birgina qobil bobo obrazi orqali namoyon bo'lgan. Uning holati ko'pincha metaforalar orqali ifodalanadi. Hikoyada bu holat berilmagan, balki metaforalarda yashiringan bo'ladi. Qobil boboning ojizligi, umidsizligi bevosita aytilmaydi, balki uning harakatlari, so'zlari va muhit bilan munosabati orqali ramziy tarzda beriladi.

Masalan, Qobil boboning ho'kizi – shunchaki chorva emas, balki uning hayot tayanchi, tirikchilik ramzidir. Ho'kizning yo'qolishi Qobil boboning hayotdan uzilishi, tayanchining qulashini anglatadi. Hayotga bo'lgan umidining uzilishi kabi tasvirlangan.



Hikoyadagi eng muhim metaforalardan biri – ho'kiz obrazidir. Ho'kiz dehqon uchun tirikchilik manbai bo'lish bilan birga, adolat va mehnat ramzi sifatida talqin qilinadi. Uni o'g'irlash – oddiy jinoyat emas, balki mehnatkash insonning hayotini o'g'irlash bilan tenglashtiriladi. Dehqon ho'kiz bilan farzandlarini boqar va oilasi tinch yashashi uchun harakat qilar edi. Hokizning o'g'rilanishi oilani ham, mansabdor shaxslarni ham tinchini buzdi. Dehqon qanday yashayman deb o'ylasa, mansabdor shaxslar qanday topamiz deb bosh qotirishar edi. Nima bo'lganda ham qobil boboning ahvoli og'ir bo'lishi aniq edi. Shu tariqa, ho'kiz metaforasi orqali yozuvchi jamiyatda halol mehnatning qadrsizlanishini ko'rsatadi. Ko'plar oilasini halol mehnat bilan emas, balki kimningdir haqi evaziga boqyapti degan ma'noni ilgari suryapti.

Hikoyada uchraydigan amaldorlar ochiqdan-ochiq yovuz sifatida tasvirlanmaydi. Ular sovuqqonligi, loqaydligi orqali “jonli devor”, ya'ni oddiy xalq bilan adolat orasidagi to'siq metaforasini ifodalaydi. Shunday kishilar jamiyatda adolatsizlikni, talon-tarojlikni keltirib chiqaradigan kishilar hisoblanadi. O'g'rini topishni o'rniga qobil boboni aldab pulini oladilar. Asl o'g'ri sifatida ana shunday mansabdor kishilarni aytish mumkin. Ularning har biri tizimning bir bo'lagi sifatida ko'rsatiladi. Bu esa o'g'rining faqat bitta shaxs emas, balki butun tizim ekanini anglatadi. Ochiz kishilarning qo'lidan hech narsa kelmasligini bilib turishsa ham, yordam qo'lini cho'zmaydigan kishilar hisoblanadi.

“O'g'ri” hikoyasida tabiat va muhit tasviri ham metaforik ma'noga ega. Sovuq, xira manzaralar jamiyatning ruhiy sovuqligini ifodalaydi. Qobil boboning yo'li uzoq va mashaqqatli tasvirlanishi uning adolat sari yurishining naqadar og'ir ekanini ramziy ko'rsatadi. Qobil bobo adolatni izlab topmoqchi bo'ladi, lekin mansabdorlar tufayli bu yo'l unga juda ham mashaqqatli bo'lganini ko'rish mumkin. Qobil bobo oxirida tushinib yetadiki, bunday mansabdorlar bor ekan jamiyatda adolat va tartibni o'rniga qo'yish qiyin ekanligini. Adolatni o'rnataman degan odamning yo'lga qandaydir to'siqlar qo'yilishi mumkinligini hikoyani o'qib tushinish mumkin. Bu manzaralar hikoyaning umumiy g'oyaviy yo'nalishini kuchaytiradi.

Abdulla Qahhor tilining asosiy xususiyati – xalqona soddalikdir. Hikoyada ishlatilgan metaforalar ham oddiy xalq tafakkuriga mos. Bu esa asarning ta'sirchanligini oshiradi. Metaforalar murakkab falsafiy iboralar bilan emas, balki kundalik hayotiy tasvirlar orqali beriladi. Shu sababli ular kitobxonga tez yetib boradi.

“O'g'ri” hikoyasida metafora ko'pincha satira bilan uyg'unlashadi. Yozuvchi kulguli holatlar orqali achchiq haqiqatni ochadi. Bu kulgu yuzaki emas, balki fosh etuvchi kulgudir. Jamiyatdagi adolatsizliklarni shu kulgu orqali ochib beish mumkinligini yozuvchi ko'rsatib beryapti. Satirik metaforalar jamiyatdagi illatlarni yanada keskinroq ko'rsatishga xizmat qiladi.

Hikoyadagi metaforalar asarning asosiy g'oyasini – adolatsizlikka qarshi norozilikni – kuchliroq ifodalashga yordam beradi. O'g'ri obrazi kengaytirilgan ma'noda jamiyatdagi barcha nopokliklarning timsoliga aylanadi. Shu orqali Abdulla Qahhor o'quvchini faqat achinishga emas, balki o'ylashga undaydi.

Xulosa

Abdulla Qahhorning “O'g'ri” hikoyasi metaforalarga boy, chuqur ma'noli asar hisoblanadi. Unda metafora oddiy bezak emas, balki badiiy g'oyaning asosiy tashuvchisidir.



Ho'kiz, yo'l, sovuq muhit, befarq odamlar kabi obrazlar orqali yozuvchi jamiyatlardagi adolatsizlik va ma'naviy tanazzulni fosh etadi.

“O'g'ri” hikoyasi metaforalar orqali o'zbek adabiyotida realizm va satiraning yuksak namunasi sifatida muhim o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Qahhor A. O'g'ri // Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
- 2.Qahhor A. Hikoyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
- 3.Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
- 4.Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. – Toshkent: Fan, 1973.
- 5.Yo'ldoshev B. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
- 6.To'xtaboyev X. O'zbek adabiyotida satira va yumor. – Toshkent: Fan, 1985.
- 7.Umurov H. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Sharq, 2002.
- 8.Mirzayev S. O'zbek adabiyotida realizm. – Toshkent: Fan, 1998.